

O‘ZBEKISTON HAYVONOT DUNYOSI QIZIL KITOBI

Ergashev Diyorbek Ermuhammad o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annотatsiya. Ushbu tezisdagi O‘zbekiston hududidagi qo‘riqxonalar va ularda tarqalgan hayvon turlari hamda O‘zbekiston hududidagi yo‘qolib ketish xavfi bor hayvonlar haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘riqxonalar, “Qizil kitob”, burgut, echkamar, bo‘rsiq, baliq.

Аннотация. В данной диссертации представлены сведения о заповедниках Узбекистана и видах животных, распространенных в них, а также о животных, находящихся под угрозой исчезновения в Узбекистане.

Ключевые слова: Заповедник, «Красная книга», орел, эчкмар, барсук, рыба.

Annotation. This thesis provides information about nature reserves in Uzbekistan and the species of animals distributed in them, as well as about endangered animals in Uzbekistan.

Key words: Reserve, "Red book", eagle, echkamar, badger, fish.

KIRISH

Qo‘riqxonalar- bu quruqlik yuzasidagi joy yoki suv havzasi. Qo‘riqxonalarda barcha tabiat ko‘rki o‘simliklar, hayvonlar va tuproq to‘liq va umrbod xo‘jalik yurituvidan chiqarib olinadi va davlat muhofazasi ostida bo‘ladi. Qo‘riqxonalarda yo‘qolib borayotgan, turlari kamayib ketayotgan hayvon, o‘simlik turlari saqlanadi. Qo‘riqxonalarda faqat ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Ayrim qo‘riqxonalar biosferaga oid deb e‘lon qilingan. Ularda har bir tabiiy hududlar uchun o‘ziga xos bo‘lgan biogeotsenozlar saqlanadi [2]. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining Ovchilik xo‘jaliklari, qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar boshqarmasi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi tasarrufida 8 ta davlat qo‘riqxonasi bor: Zomin tog‘- o‘rmon davlat qo‘riqxonasi, Baday -to‘qay davlat qo‘riqxonasi, Qizilqum davlat qo‘riqxonasi, Zarafshon davlat qo‘riqxonasi, Surxon davlat qo‘riqxonasi, Hisor davlat qo‘riqxonasi, Chatqol biosfera qo‘riqxonasi, Kitob davlat geologiya qo‘riqxonasi. O‘zbekistonda, shuningdek, milliy bog‘ va buyurtma qo‘riqxonalar faoliyat olib boradi [1].

Hisor davlat qo‘riqxonasi. Qo‘riqxonalar hududida 250 dan ortiq turdagi umurtqali hayvonlarni uchratish mumkin. Bu yerda O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitobiga kiritilgan sutemizuvchilardan Tyanshan qo‘ng‘ir ayig‘i, O‘rta Osiyo qunduzi, qor qoploni, Turkiston silovsini, kichik taqaburun va katta taqaburun ko‘rshapalaklari, qushlardan boltayutar, burgut, qora laylak va lochin uchraydi [1].

Zomin davlat qo'riqxonasi. Qo'riqxonaning hayvonot dunyosi xilma-xil bo'lib, Turkiston agamasi, qumloq va tuproq yerlarda chipor ilon, sariq ilon, cho'l kaltakesagi, dehqon chumchuqlar, qorayaloq, archa boltatumshug'i, Turkiston ukkisi, kaklik va Turkiston maynasi, vahima qush, jibljibon, yirtqich qushlardan tasqara va boltayutarlar uchraydi.

Qizilqum davlat qo'riqxonasi. Qo'riqxonada hayvonot olamiga juda boy. Bu yerda Xalqaro va O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan, sutemizuvchilardan Buxoro bug'usi va jayron, qushlardan churrak, yo'rg'a tuvaloq, suv burguti, baliqlardan Amudaryo katta kurakburuni uchraydi.

Surxon davlat qo'riqxonasi. Bu qo'riqxonaning hayvonot olami xilma-xil: Buxoro qo'yi, jayron, Turkiston silovsini, echkamar, kapcha ilon, Turkiston oq laylagi, qora laylak, burgut, boltayutar, tasqara, ilonburgut va mallabosh lochinlar Xalqaro va O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobiga kiritilgan.

Zarafshon dasht-to'qay qo'riqxonasi. Qo'riqxonada yuzdan ziyod hayvon turlari ro'yxatga olingan va muhofaza etiladi. Qo'riqxonada oddiy to'qay tovush- qoni, bo'rsiq, karaganka, chiyabo'ri, to'qay mushugi, jayra ko'paytiriladi.

Kitob davlat qo'riqxonasi. Kitob davlat qo'riqxonasi Zarafshon tog' tizmasining janubi g'arbiy qismida joylashgan. Qo'riqxonada noyob paleontologik topilmalar muhofaza qilinadi. O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan burgut, boltayutar va boshqa hayvonlar qo'riqxonada faunasini tashkil etadi.

Chotqol tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi. Chotqol qo'riqxonasida Markaziy Osiyo tog' ekotizimlarining faqatgina shu hududda uchraydigan endemik va kamyob o'simlik hamda hayvon turlari muhofaza qilinadi. Ushbu qo'riqxonada tog' qo'yi, yovvoyi cho'chqa (qobon), Turkiston silovsini, ko'k sug'ur, jayra, gornostay, relikt yumronqoziq, qor barsi (irbis) kabi hayvonlar muhofaza qilinadi.

Har bir inson tabiatni muhofaza qilish ishiga vijdonan yondashishi zarur. Chunki be'tibor qaralsa hayvon va o'simlik turlari yo'qolib ketadi. Men o'zimning tengdoshlarimga va amaliyotdagi maktab o'quvchilariga ham hayvon turlari, ularning yashash muhitlari va yo'qolib borayotgan hayvonlar haqida ma'lumot berib boryapman. Tabiatni saqlash va yo'qolib borayotgan hayvonlarni himoya qilish va asrash, nafaqat men uchun, balki har bir inson uchun katta ahamiyatga ega. Ona tabiatni kelgusi avlodlarimiz uchun tabiiy holda saqlab qolish - bugungi kunning asosiy muammolaridan biridir. Tabiatni asrash har birimizning burchimizdir.

XULOSA

Atrof – muhitning tozaligini saqlash faqat fauna va flora uchungina emas, balki inson uchun ham katta ahamiyatga ega, chunki uning sog'lig'i atrof – muhitning holatiga

to'g'ridan – to'g'ri bog'liqdir. Shuning uchun ham ichimlik suvlarining tozaligini saqlash, zararli kimyoviy moddalardan qishloq xo'jaligida foydalanishni kamaytirish, shaharlarda havoning ifloslanishini kamaytirish juda katta ahamiyatga ega. Respublikamizda hayvonlarni muhofaza qilish va hayvonot olami boyliklaridan oqilona foydalanishda hal etilmagan masalalar ko'p. Bu masalalarni hal qilish xalq ommasining tabiat muhofazasi, tabiatdan foydalanish haqidagi bilim darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. Aholining ekologik tarbiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, tabiatdan oqilona foydalanish to'g'risidagi madaniyat ham shuncha yuqori bo'ladi. Atrof – muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish to'g'risidagi qonunlarga rioya qilish mamlakatimizning hamma fuqorolari uchun majburiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Biologiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik: 1-nashr/Mualliflar: G'afurov A, Abdukarimov A, Tolipova J, Ishankulov O, Umaraliyeva M, Abduraxmonova T. T.: «Sharq», 2018. - 240 b.
2. "O'zbekiston Respublikasi tabiat resurslari vazirligi".
3. Isakovna, M. N., Ibodullayevna, I. M., Ibragimovna, K. N., & Asamovich, K. M. (2023). Case Method and Its Use in Chemistry. *Journal of Advanced Zoology*, 44.
4. Мамадалиева, Н. И., Саатов, Т. С., Хайбуллина, З. Р., & Умеров, О. И. (2014). Динамика фосфолипидного состава сердечных тканей как основа для формирования толерантности к гипоксии. *Вестник Ташкентской медицинской академии*, 1, 25-31.
5. Isakovna, M. N. (2021). Development of a methodology for teaching a course in organic chemistry on the basis of a modular credit system. *European Scholar Journal*, 2(6), 118-120.
6. Sharipov, K., Abdullaeva, S., Khalilov, S., & Xadjibayev, A. (2025). Analysis of the effectiveness of hydrocarbon vapor condensation. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1287-1291.
7. Jahongir Ulug'bek og'li, A., & Abubakirovna, D. Z. (2024). Neurosis and neurotic disorders. *Western European Journal of Medicine and Medical Science*, 2(12), 28-30.
8. Shokhsanam, T. (2024). Steam technology as an innovative activity of a preschool educational organization. *American journal of education and learning*, 2(5), 454-459.
9. Юсупалиходжаева, С., & Бекжанова, О. (2018). Изучение биомаркеров протеолиза–антипротеолиза в развитии кандидозного стоматита полости рта. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (3 (102)), 114-117.
10. Baranov I. "Qo'riqxonalar va ulardagi xilma - xillik".